



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,  
27-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	16
<b>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</b>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов .....	19
<b>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</b>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<b>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</b>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi .....	29
<b>Sattarov Farrux Nuridinovich</b>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish .....	35
<b>D. K. Ibadullayev</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	41
<b>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna</b>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<b>Юсупова Элеонора Фердинандовна</b>	
Matematika o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik .....	51
<b>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<b>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</b>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) .....	60
<b>M. D. Boynazarova</b>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки .....	63
<b>Нормуратов Абдулла Саппарович</b>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<b>Normuratov Abdulla Sapparovich</b>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari .....	70
<b>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</b>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<b>Omonova Charos Baxodir qizi</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<b>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</b>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<b>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</b>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida .....	91
<b>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</b>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<b>Abdumannan Maxammatov</b>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi” .....	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati .....	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darolarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi .....	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness .....	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi .....	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri .....	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari .....	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari .....	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari .....	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darolarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari .....	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darolarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati .....	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish .....	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari .....	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	


Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari .....	198
<a href="#">Salomov Abdurasul Axmadovich</a>	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi .....	201
<a href="#">Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
<a href="#">Sojida Safarova Saxadin qizi</a>	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
<a href="#">Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</a>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	210
<a href="#">Xoldorova Mashxura G'ulomovna</a>	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов .....	214
<a href="#">Нурбаев Бахтиёр Широнович</a>	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
<a href="#">To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</a>	



# BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING O'QUV-BILUV FAOLIYATINI MOTIVATSIYALASHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Saidova Zulfizar Norbobo qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti 2-kurs magistranti



Ilmiy rahbar: T. Ashurova

Pedagogika kafedrası PhD, dotsent

**Annotatsiya:** Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish va ularni ta'lim jarayoniga ongli ravishda jalb etishda interfaol metodlarning o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida motivatsion omillarni shakllantirish mexanizmlari, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi metodik vositalar yoritiladi. Interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Klaster", "Blits-so'rov", "Rol o'ynash", "Debat" kabi shakllar orqali talabalar faolligi, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kasbiy tayyorgarlik darajasining ortishi ta'minlanadi.

Shuningdek, o'quv motivatsiyasining psixologik-pedagogik asoslari, uning maktabgacha ta'lim tizimidagi amaliy ahamiyati hamda ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Olingan natijalar interfaol metodlardan oqilona foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, o'quv-biluv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** o'quv-biluv faoliyati, motivatsiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, faollik, kasbiy kompetentlik, tarbiyachi tayyorlash.

**Abstract:** The role and significance of interactive methods in enhancing the educational and cognitive activity of future preschool teachers and engaging them consciously in the learning process are analyzed. The study explores mechanisms for forming motivational factors based on modern pedagogical approaches, as well as methodological tools that strengthen cooperation between teachers and students. The use of interactive techniques such as "Brainstorming", "Cluster", "Blitz survey", "Role play", and "Debate" contributes to increasing students' activity, developing independent thinking, creativity, and professional readiness.

In addition, the psychological and pedagogical foundations of learning motivation, its practical importance in the preschool education system, and its impact on the quality of education are scientifically substantiated. The results indicate that the rational use of interactive methods is an important factor in developing professional competence and fostering a positive attitude toward educational and cognitive activities among future preschool educators.

**Key words:** educational and cognitive activity, motivation, interactive methods, pedagogical technology, activeness, professional competence, preschool teacher training.

**Аннотация:** Рассматриваются значение и роль интерактивных методов в процессе активизации учебно-познавательной деятельности будущих воспитателей дошкольного образования и их осознанного вовлечения в образовательный процесс. Анализируются механизмы формирования мотивационных факторов на основе современных педагогических подходов, а также методические средства, усиливающие сотрудничество между преподавателем и студентом. Использование интерактивных методов, таких как "Мозговой штурм", "Кластер", "Блиц-опрос", "Ролевая игра", "Дебаты", способствует повышению активности студентов, развитию самостоятельного мышления, творческих способностей и уровня профессиональной подготовки.

Кроме того, научно обосновываются психолого-педагогические основы учебной мотивации, её практическое значение в системе дошкольного образования и влияние на качество обучения. Полученные результаты показывают, что рациональное применение интерактивных методов является важным фактором формирования профессиональной компетентности будущих воспитателей и положительного отношения к учебно-познавательной деятельности.

**Ключевые слова:** учебно-познавательная деятельность, мотивация, интерактивные методы, педагогическая технология, активность, профессиональная компетентность, подготовка воспитателей.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalash muammosi pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri sifatida alohida e'tiborni talab etmoqda. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlash jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi faol hamkorlik, ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda o'quv jarayoniga ongli munosabatni shakllantirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son<sup>1</sup> Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko'tarish zaruriyatini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, interfaol metodlar asosida ta'lim olish jarayoni bo'lajak tarbiyachilarda nafaqat bilim, balki faol motivatsiyani, o'rganishga bo'lgan qiziqish va mas'uliyat hissini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogik faoliyatda "Aqliy hujum", "Klaster", "Blits-so'rov", "Rol o'ynash", "Debat", "Bumerang" kabi interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, o'z fikrini erkin ifodalash, muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun bunday metodlar bolaning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni ta'minlaydi.

Shuningdek, motivatsiyaning kuchli bo'lishi ta'lim sifatiga, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish darajasiga bevosita ta'sir etadi. Shu sababli, interfaol metodlar orqali o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini, kommunikativ madaniyatini, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari, ularning o'quv motivatsiyasini shakllantirishdagi o'rni hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalash jarayoni va unda interfaol metodlardan foydalanish masalasi hozirgi zamon pedagogikasining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish talabalarning bilishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi, ularni mustaqil o'rganish, tahlil qilish va ijodiy fikrlashga undaydi.

N. Sayidahmedov 2003-yilda chop etilgan "Yangi pedagogik texnologiyalar" asarida ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash zaruriyatini asoslab bergan bo'lib, bunda interfaol metodlar o'quvchining shaxsiy faolligini oshiruvchi, ularni bilim manbai sifatida faol ishtirok etishga undovchi vosita sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, A. Abduqodirov 2008-yildagi tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish imkoniyatlarini yoritgan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda motivatsiya masalasi chuqur o'rganilgan bo'lib, L. S. Vygotskiy 1991-yilda, A. N. Leontyev 1975-yilda, D. B. Elkonin 1978-yilda olib borgan ilmiy tadqiqotlarida faoliyat va motiv o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan. Ularning fikricha, o'quv-biluv faoliyatining samarali kechishi o'quvchining ichki motivlari, maqsadga yo'naltirilgan harakatlari hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siriga bog'liqdir.

Zamonaviy o'zbek olimlaridan M. Usmonboyeva 2019-yildagi ilmiy ishlarida innovatsion va interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'qitish sifatini oshirish, shuningdek, shaxsda o'rganishga bo'lgan ijobiy psixologik munosabatni shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilgan.

Shuningdek, D. N. Xoliqova 2015-yildagi tadqiqotlarida interfaol metodlarning nazariy asoslarini hamda ularning dars jarayonida o'quvchining faolligini oshirishdagi ahamiyatini ochib bergan.

Xorijiy tadqiqotchilardan J. Dewey 1938-yilda, M. Montessori 1949-yilda va J. Piaget 1962-yilda olib borgan ilmiy izlanishlarida o'yin va interfaol faoliyatning ta'limdagi o'rni chuqur tahlil qilinib, o'qitish jarayonida tajriba, hamkorlik va faol ishtirokning o'quv motivatsiyasini kuchaytiruvchi muhim omil ekanligi ta'kidlangan.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish o'quv jarayonining markazida talabaning faol subyekt sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bunday metodlar bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlik, kommunikativ malaka va ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun samarali sharoit yaratadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, faoliyat nazariyasi, motivatsion yondashuv hamda interfaol o'qitish texnologiyalarining ilmiy-nazariy prinsiplari tashkil etadi. Tadqiqotda pedagogika, psixologiya va didaktika fanlari kesimida shakllangan zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, o'qitish jarayonida shaxsning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

- nazariy tahlil – mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, qonun va qarorlar, ilmiy maqolalar hamda monografiyalari o'rganildi;
- tizimli yondashuv – o'quv-biluv faoliyati va motivatsiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ularning shakllanish bosqichlari tahlil qilindi;
- pedagogik tajriba – interfaol metodlardan foydalanishning o'quv motivatsiyasiga ta'siri amaliy sinovlar orqali kuzatildi;
- kuzatish va suhbat – bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining dars jarayonidagi faolligi, o'rganishga bo'lgan munosabati hamda o'qituvchi bilan kommunikatsiya jarayoni tahlil etildi;
- so'rovnoma va diagnostika – talabalarning motivatsion holatini aniqlash, interfaol metodlarning samaradorligini baholash uchun psixologik-pedagogik testlar va so'rovnomalari o'tkazildi.

Tadqiqot jarayonida empirik ma'lumotlar TDPU (Toshkent davlat pedagogika universiteti)ning maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari asosida shakllantirildi. Tajriba davomida "Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o'ynash", "Debat" kabi interfaol metodlar qo'llanilib, talabalarning bilim faolligi, mustaqil fikrlash darajasi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi o'zgarish dinamikasi kuzatildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalash mexanizmi interfaol metodlar asosida tizimli tahlil qilindi, pedagogik jarayonda motivatsion omillarni shakllantirishning samarali shart-sharoitlari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari olingan nazariy xulosalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llashning metodik tavsiyalarini ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'tkazilgan pedagogik kuzatishlar, so'rovnomalari va tajribaviy mashg'ulotlar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot ishtirokchilari (eksperimental guruh – 45 nafar, nazorat guruhi – 43 nafar) o'rtasida o'tkazilgan tahlillar natijalari interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi.

Eksperimental guruhda darslar "Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o'ynash", "Debat", "Blits-so'rov" kabi interfaol metodlar asosida olib borildi. Natijada talabalarning darsdagi ishtirok faolligi 68 % dan 89 % gacha oshgani, o'quv motivatsiyasi yuqori darajadagi talabalarning ulushi esa 27 % dan 61 % gacha ko'tarilgani aniqlandi. Bu esa interfaol metodlar nafaqat bilimni mustahkamlash, balki o'rganishga ichki rag'batni shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, interfaol metodlarning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

- talabalarda faol kommunikativ muhitni yaratadi;
- mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- jamoaviy ishlash va hamkorlik madaniyatini shakllantiradi;
- ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga imkon beradi;
- o'quvchilarda ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, nazorat guruhida an'anaviy dars usullaridan foydalanilgan holatda o'quvchilarning faollik darajasi unchalik o'zgarmagan, motivatsion ko'rsatkichlar esa 35 % atrofida saqlanib qolgan. Bu holat interfaol metodlarning pedagogik samaradorligini yanada tasdiqlaydi.

Pedagogik tahlil shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning bilimga bo'lgan ijobiy munosabati, kasbiy ishonchi va o'z-o'zini anglash jarayonlari faollashadi. Shuningdek, ular bolalar bilan ishlashda ham shu yondashuvlarni qo'llashga moyil bo'lib, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashning samarali vositasi bo'lib, u talabalarda bilimga intilish, o'rganish jarayonidan zavq olish, o'z fikrini erkin ifoda etish va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda eng samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar talabalarda nafaqat o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshiradi, balki ularning ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida olingan empirik ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Debat", "Klaster", "Bumerang", "Insert", "Sinkveyn" kabi interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda talabalar faolligi an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa interfaol metodlar o'quv jarayonini faollashtirish, motivatsiyani mustahkamlash va o'rganishga ijobiy ruhiy muhit yaratishda muhim o'rin tutishini isbotlaydi.

Xususan, interfaol metodlar:

- o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydi;
- bilimni o'zlashtirish jarayonini faol va ijodiy tusga keltiradi;
- motivatsion omillarni kuchaytirib, o'rganishga bo'lgan ichki rag'batni oshiradi;
- kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi;
- kasbiy refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilari tayyorlash jarayonida interfaol metodlarni keng joriy etish ularning kasbiy yetukligini oshirish, bolalar bilan ishlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalana olish hamda mustaqil fikrlovchi, ijodkor tarbiyachilarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, interfaol metodlar ta'lim jarayonida o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashning innovatsion, samarali va amaliy jihatdan asoslangan mexanizmi bo'lib, u kelajakdagi pedagogik faoliyatda ijodkorlik, mustaqillik va kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Hasanboeva O., Tolipova J. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 380 b.
3. G'ofurova R., Yusupova M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Noshir, 2019. – 296 b.
4. Jabborova N. Interfaol ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik jarayondagi o'rni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 210 b.
5. G'ulomova D., Mamatqulova D. Maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018. – 245 b.
6. Xoliqova M. Talabalarda o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish metodikasi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2022. – № 3. – B. 42–49.
7. Rajabova N., Kuldosheva M. Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interfaol metodlar // Maktabgacha ta'lim muammolari. – 2021. – № 5. – B. 31–37.
8. Tursunova D. Kasbiy ta'limda interfaol o'qitish usullarining psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 188 b.
9. Ausubel D.P. Educational Psychology: A Cognitive View. – New York: Holt, Rinehart & Winston, 1968. – 685 p.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
11. Bruner J. Toward a Theory of Instruction. – Cambridge: Harvard University Press, 1966. – 176 p.
12. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 418 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.